

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MEHMONDO‘STLIK HAQIDAGI O‘ZBEK, QIRG‘IZ, OZARBAYJON XALQ MAQOLLARI TIPOLOGIYASI

Mashrapova Gulsanam Axadovna,

ADU doktoranti (DSc), fil.f.b.f. d.

mashrapovag83@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290752>

Annotatsiya: *Ixcham, quyma, aniq va ta’sirchan fikr ifodasi bo‘lgan maqol janri dunyo ilmiy fanida, xususan, o‘zbek folklorshunosligida ham bir necha bor maxsus o‘rganilgan, tadqiqotlar olib borilgan, bu masalaga aloqador ko‘plab ilmiy maqolalar mavjud. Ushbu maqoladan ko‘zlangan maqsad esa, turkiy xalqlarga mansub o‘zbek, qirg‘iz, ozarbayjon xalq og‘zaki ijodida tipologik o‘xshashlik yoki ayni ko‘rinishga ega bo‘lgan mehmondo‘stlik haqidagi maqollarni qiyosan o‘rganish, o‘xshash va farqli jihatlarini tadqiq etishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *maqol, umumturkiy folklor, tipologik o‘xshashlik, qo‘noq, mehmondo‘stlik.*

Аннотация: *Жанр пословицы, представляющий собой компактное, сжатое, ясное и впечатляющее выражение мысли, неоднократно специально изучался и исследовался в мировой науке, в частности, в узбекском фольклоре, и этому вопросу посвящено множество научных статей. Целью данной статьи является сравнительное исследование пословиц о гостеприимстве, имеющих типологическое сходство или одинаковый облик в узбекском, киргизском, азербайджанском фольклоре, принадлежащих тюркским народам.*

Ключевые слова: *пословица, общетурецкий фольклор, типологическое сходство, гость, гостеприимство.*

Annotation: *The genre of the proverb, which is a compact, concise, clear and impressive expression of thought, has been specially studied and researched several times in world science, in particular, in Uzbek folklore, and there are many scientific articles related to this issue. The purpose of this article is to comparatively study the proverbs about hospitality that have typological similarity or the same appearance in the Uzbek, Kyrgyz, Azerbaijani folklore belonging to the Turkic peoples. It consists of researching similar and different aspects.*

Key words: *proverb, all-Turkish folklore, typological similarity, guest, hospitality.*

Qadimdan turkiy tilda so‘zlashuvchi qirg‘iz va qozoq xalqlari bir-birlari bilan yonma-yon, qo‘ni qo‘shni bo‘lib yashaganlar. Shuning uchun ularning yashash tarzi, urf-odatlar, marosim va udumlari, an‘analari, uyg‘unlik mavjud, shuningdek, badiiy tafakkuri, e‘tiqodiy qarashlari, moddiy, madaniy boyliklari, adabiyoti, san‘atida o‘zaro o‘xshashliklarni kuzatish mumkin[2]. Bunday mushtaraklik, avvalo, ushbu xalqlarning xalq og‘zaki poetik ijodida namoyon bo‘ladi. Folklorshunoslikka oid kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar va tahlillar jarayonida folklorning juda ko‘plab janrlari: maqol, topishmoq, tez aytish kabi ixcham janrlardan tortib dostonlargacha umumturkiy folklor namunalari sifatida qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganilgan, muhim nazariy xulosalar chiqarilgan.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Xalq og‘zaki ijodining eng faol, yashovchan janrlaridan biri hisoblangan maqollar xalq turmushi, tarixi va madaniyati, uzoq yillik tajribalarini aks ettiradi. Nafaqat turkiy xalqlar, balki dunyo xalqlari folklorida katta ko‘lamga ega bo‘lgan maqollar mavzu jihatdan rang-barang. Shuning uchun ham aksar hollarda maqollar to‘plamidan iborat kitoblar bo‘limlari shu mezon asosida tartiblanadi. Ularning orasida mehmondo‘stlik, mehmon kutish odobi mavzusiga oid maqollar salmoqli o‘rin egallaydi.

Turkiy xalqlar azaldan juda mehmondo‘st, qo‘noqsevar xalqlar bo‘lishgan. Mehmonsevar xonadonlarga el orasida ijobiy munosabat shakllangan bo‘lib, qut-barakali, fayzli uy sifatida hurmat qozongan. Shuning uchun “Mehmon kelgan uyning chirog‘i ravshan”, “Qonaq gəlməyən ev xaraba qalar”, “Qonaqsız ev susuz dəyirman” kabi maqollar yuzaga kelgan. Ota-bobolarimiz xoh ko‘chmanchi bo‘lsin, xoh o‘troq, uyiga kelgan insonni izzat-hurmat ko‘rsatib, borini dasturxonga to‘kib qarshi olgan, eng yaxshi taomlar bilan siylab, kuzatganlar. Bizni ushbu mavzuga qo‘l urishimizga sabab bo‘lgan omil ham Qirg‘izistonga tashrifimiz, u yerdagi qondosh qo‘shnilarimizning mehmondo‘stligi va taom ustida yozib olingan maqollardir. Ozarbayjon xalqida ham mehmondo‘stlik ulug‘lanib, mehmon kim bo‘lishi, mansubiyatidan qat‘iy nazar e‘zozlanishi kerakligi aytiladi: Qonağa hörmət eylə, əgərçi kafir də olsa[1]. Kuzatishlarimiz natijasida bu uch millat folklorida ayni shaklda yoki o‘xshash holda saqlanib, aytilib kelinayotgan maqollar mavjudligi aniqlandi. Maqollar tahlilidan avval aytish kerakki, matn tarkibida mehmon so‘zi, asosan, qo‘noq shaklida berilgan. Bu, ayniqsa, qirg‘iz va ozarbayjon maqollarida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Qo‘noq” so‘zi lug‘atlarda shunday izohlanadi: “Biror joyga, biror kimsaning uyiga qo‘ngan, tushgan yo‘lovchi, sayyoh; mehmon”[3]. O‘zbek xalqining chorvadorlik, ko‘chmanchilik hayot tarziga mansub urug‘larida ham qo‘noq so‘zi faol iste‘molda bo‘lgan. Shuning uchun xalq maqollarida mehmon so‘zi ham, qo‘noq so‘zi ham birdek qo‘llangan. Ularning ichida xalqimiz tomonidan eng ko‘p qo‘llanadigani bu – “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan”[5] maqolidir. Qirg‘iz xalqida esa xuddi shu mazmunda quyidagi maqol bor: “Qo‘noq o‘n rizq bilan kelar, biri ketib, to‘qqizi qolar”[6]. Ozarbayjon folklorida esa ushbu mazmunni ifodalovchi quyidagi maqollar mavjud: “Qonağın payını Allah yetirər”(Mehmonning nasibasini Alloh yetkazadi), “Qonaq bərəkət gətirər”. Har uchala millat maqoli ham mazmunan mehmonning rizqi ulug‘ligi, uning tashrifi uy egasi – mezbonga qiyinchilik tug‘dirmasligi, mehmon bilan birga kutilmagan yerdan oilaga qut-baraka kelishi haqidagi hayotiy xulosalarni aks ettirgan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Mehmondo‘stlik haqidagi maqollarda ikki obyekt: mehmon va mezbон shaxsiyati yoritiladi, ular o‘rtasidagi munosabatning turli ko‘rinishlari tasvirlanadi. Qirg‘iz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga mansub “Qo‘noq qo‘ydan yuvosh”[7] maqoli birovning uyida kishining tortinishi, uyalishi, odob yuzasidan kam so‘zlashini anglatadi, “uyga kelguncha mehmon uyaladi, uyga kelguncha mezbон uyaladi”[8] maqolida esa mezbонning kutilmagan mehmon kelgan vaqtdagi holati, uydagi ro‘zg‘or tekis bo‘lmaganidan hijolat chekishi ifoda etiladi.

Mehmondo‘stlik aloqasi juda nozik munosabatlar ustiga quriladi. Arzimas, kichik bir harakat yoki so‘z ham mehmonning dilini og‘ritib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun o‘zbek xalqi orasida “mehmon oldid mushugingni “pisht” dema” maqoli juda keng tarqalgan. Bu bilan mehmon kelganda oilaviy janjallashishlar bo‘lmasligi, mezbонlar o‘zlarining faqat yaxshi tomonlarini ko‘rsata olishlari kerak. Farzandlarga kichik yoshdanoq “mehmon bor, to‘polon qilmanglar”, “mehmonning oldida ko‘p gapirma” yoki “mehmonning oldida hadeb dasturxonga qo‘l uzatma” deb odob o‘rgatiladi. O‘zbeklardagi “Mehmonni siylagan itiga suyak tashlar”[4] yoki ozarbayjon xalqining “Qonağın ağzına baxarlar, atına yem/arpa verərlər”[9] maqoli mehmonga ko‘rsatilajak mulozamatning yuksak namunasini ifodalaydi, shunga qaramay, ba‘zan har qancha ko‘nglini olishga harakat qilmang, ayrim mehmonlar ketgandan so‘ng mezbонning kamchiligini, yaxshi taomlar bilan siylamagani haqida boshqalarga so‘zlab yuradi. Bunday kishilarga nisbatan qirg‘iz xalqida “mehmon to‘ydim demaydi, so‘ymadi deydi”[10], maqoli ishlatiladi. O‘zbek xalqida esa ushbu maqolning aks ma‘nodagisini uchratamiz: “qo‘noq to‘ydim deydi, uy egasi yoqtirmadi deydi”. Mehmondorchilikda taomlanishda o‘ziga xos me‘yorlar, estetik qoidalar mavjud. Oldiga kelgan har qanday taomni yeyaverish ham yoki hech narsa tanavvul qilmay o‘tirish ham mehmon va mezbон o‘rtasidagi noqulay vaziyatni keltirib chiqaradi. Mehmondo‘stlikda qoidalarida mehmonning ta‘bi, qaysi taomni xushlashi yoki xushlamasligi e‘tibor qiladigan muhim jihat hisoblanadi. Agar mezbон tayyorlangan taom mehmon tomonidan yeyilmasa, buning uchun uy egasi qattiq hijolat chekkan yo taom mazasi durust bo‘lmagani yoki bu taomni mehmon umuman xush ko‘rmasligi vajidan o‘zini ayblagan. Shuning uchun bu vaziyatni anglatuvchi turli maqollar yuzaga kelgan: “Qonağa ağzına görə aş bişirəllər”, “Qonağa görə süfrə açılar”, Конокко шорпо салыңыз, эки колунузду бош коё бериңиз¹.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Mehmonlik etikasida uning qaysi vaqtda kelishi, aytilgan yoki aytilmagan joyiga borishi, qancha muddat qolishi kabi masalalarni ham birlamchi deb qaraladi. Mehmonning kelgan xonadonida uzoq qolishi ba’zan mezbonga noqulaylik, iqtisodiy qiyinchilik olib kelgan. Shuning uchun har uchala xalqda ham bir xil ko‘rinishga ega bo‘lgan quyidagi maqollar yuzaga kelgan: “Mehmon birinchi kun – oltin, ikkinchi kun – kumush, uchinchi kun – mis, uchdan oshsa – pes”, “Qonaq birinci gün qızıldır, ikinci gün gümüşdür, üçüncü gün misdir, dördüncü gün pisdır”, “Биринчи күндүн коногу-алтын конок, Экинчикүн-күмүш, Үчүнчү күн-жез, Эгерде үчтөн ашык болсо – пес”.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umumturkiy folklor namunalarida, xususan, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turk, ozarbayjon maqollarida mehmon va mehmondo‘stlik mavzusi keng o‘rin egallaydi. Ushbu xalqlarning etnik birligi, tarixi, yashash tarzi va urf-odatlarining o‘xshash jihatlari xalq donoligi asosida aytilgan quyma fikrlarining tajassumi bo‘lgan maqollarda mushtarak holda o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Məmmədov X.B. Azərbaycan Dövlət Pedaqoji Universiteti mkhankishi@mail.ru Folklorda qida mədəniyyəti və milli-mənəvi dəyərlər pedaqoji universitetin xəbərləri – 2019, C. 67, № 2, s. 71-82.
2. Temirova M. O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi:fil.f.b.f.d.diss...– T, 2018. – B. 13.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А. Мадвалиев таҳрири остида. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 618; Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Кўп жилдлик. 6-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – Б. 97.
4. O‘zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov; Mas‘ul muharrir: Sh.Turdimov. – T.: Sharq, 2005. – B. 84b.
5. Ўзбек халқ мақоллари . Тўпловчи: Х. Сувонкулова. – Т.: Адабиёт учкунлари, 2014. https://kitobxon.com/uz/kitob/ozbek_halq_maqollari
6. Dala yozuvlari. Aytuvchi: Minayim Usmonaliyevna, 65 yosh. Qirg‘iziston Respublikasi Bishkek shahri. 5.03.2024.
7. Dala yozuvlari. Aytuvchi: Mira Tumanbayeva. 51 yosh. Qirg‘iziston Respublikasi Bishkek shahri. 5.03.2024
8. Dala yozuvlari . Aytuvchi: Jaqipov Kubatbek Kubanchievich, 58 yosh. Qirg‘iziston Respublikasi, Bishkek shahri. 6.03. 2024.
9. Atalar sözləri. Bakı, “Nurlan”, 2013. – S. 293.
10. Dala yozuvlari Aytuvchi: Gulzad To‘xtalaniyeva, 42 yosh. Qirg‘iziston Respublikasi, Bishkek shahri. 5.03.2024.